

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA**

Toshkent – 2024

III SHUBA

Boboeva M.Sh. Mutaqillikdan keyingi davrda transformatsiyalashuv jarayonlari va uning ahamiyati	258
Muxammadjonov J.J. Fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini himoya qilishning asosiy shakllari hamda qonunchilik asoslari.....	262
Ismatov Sh.M., O'rino O'. N. "O'zbekiston-2030" strategiyasida davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimidagi islohotlar	269
Mamadjanov J.N. Yangi O'zbekstonda ijtimoiy davlat barpo etishda ijtimoiy huquqni ta'minlashning huquqiy asoslari hamda tashkiliy mexanizmlari	272
O'tanazarova Y.R. Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va raqamlashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari	275
Xomidov M. X. Sanoat korxonalarini va tarmoqlari kooperatsiyasini rivojlantirishning huquqiy asoslari.....	280
Meyliev O.R., Gofurova KX. Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat byudjetining o'rni	283
Mirzamahmudov M.M. Kambag'allikni qisqartirishda davlat siyosatini belgilash va bunda davlat tomonidan infratuzilmaga kiritilgan investisiyaning ahamiyati	287
Isaxonova R.M. O'zbekstonda iqtisodiy islohotlar sharoitida aholi salomatligini ta'minlashni moliyaviy masalalari.....	292
Xalikov U., Kamilova N. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning o'rni va ahamiyati	295
Sotvoldiyeva M.G., Turaeva S.T. Assessment of impact of human activity on water resources. Learning on the example of Uzbekistan.....	299
Shirinov A.Q. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish islohotlar tendensiyasi sifatida	304
Xoliqov L.M. O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomini yuksaltirishda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining o'rni	308
Imomova O.J. O'zbekiston iqdisodiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va turizm xizmatlarining mamlakat iqdisodiyotiga tasiri	313
Mansurova N.D. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida gender tenglik masalalari	316
Jalolova Y.M., Zoirova M.Y. O'zbekstonda iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarni ta'minlashning tashkiliy mexanizmlari masalalari.....	319

O'ZBEKISTON IQDISODIYOTIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA TURIZM XIZMATLARINING MAMLAKAT IQDISODIYOTIGA TASIRI

Imomova Odinaxon Jumaboy qizi¹

¹Termiz Davlat Universiteti Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi magistranti aydin.toh@mail.ru

Annotatsiya. Bu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini bosqichma-bosqich rivojlantirish yo'lidagi islohotlar va iqdisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar muhokama qilinadi. Tanlangan obyekt sifatida Namangan viloyatida turizm xizmatlarining sifatli olib borilishining iqdisodiyotga ta'siri va ichki va tashqi turizm masalalarining tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Iqdisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, turizm, ichki turizm, tashqi turizm.

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekiston ham o'z mustaqilligini ta'minlagach, boshqa bir qator sohalar singari davlat iqdisodiyotini rivojlantirish va unga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillarga jiddiy e'tibor qaratdi. Davlatimizda keyingi yillarda olib borilgan va amalga oshirilgan islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalari o'rtasidagi mutanosiblik kuchaydi, bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Lekin, shunga qaramasdan iqdisodiy rivojlanish va uning istiqbolli yo'llarini aniqlab, ularni kengaytirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida davlatimiz iqdisodiyotini rivojlantirishning bosqichma-bosqich rivojlantirish g'oyasi ilgari surildi va iqdisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida quyidagilarga katta e'tibor qaratildi:

- Keng ko'lamdag'i tizimli bozor islohotlarini izchil amalga oshirish;
- Asosan xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- Eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarini barpo etish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o'ylangan siyosatni amalga oshirish;
- Ichki va tashqi turizm sohasi samaradorligini oshirish;

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davatlarning iqdisodiy rivojlanish yo'llari tahlil qilinganda, tatqiqodlar shuni ko'rsatdiki, ilm-fan, tibbiyot, iqdisodiyot,

san'at va ma'daniyat kabi bir qator sohalar qatorida turizm ham davlat iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatimiz raxbarining tashabbusi bilan yurtimizda turizmning bir qator turlari rivojiga jiddiy e'tibor qaratilib, bir necha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan so'nggi yillarda sarguzasht turizmi, agroturizm, madaniy va eko turizm, sport va tibbiy turizm yo'nalişlarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Mamlakatimizda turizm industriyasini yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini yuksaltirish, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyoohlар oqimini ko'paytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz keskin sur'atlarda turizm markaziga aylanib bormoqda va buning natijasida yurtimizda ichki va tashqi sayyoohlар oqimi bir necha barobarga oshdi va bu tashqi va ichki turizmni rivojlantirish borasida qator, sayyoohlар va xususiy sayyoohlilik uyushmalari uchun qabul qilinayotgan yengillik yaratuvchi islohotlar natijasidir. Jumladan, chet eldan tashrif buyurayotgan sayyoohlар va ichki sayohat qiluvchi yurtdoshlarimizni joylarda yashab qolish va ovqatlanishini taminlash va bu tufayli kichik biznesni yo'lga qo'yish orqali ishsiz fuqarolarimizni ish bilan taminlanishi bilan iqtisodimizga ijobjiy ta'sir ko'rsatilmoqda. Chet el fuqorolarini turizm maqsadida yurtimizga kirib kelishi, ular orqali pul mablag'lar kirib kelishi demakdir. Bu esa yalpi ichki mahsulotimiz o'sishiga o'z hissasini qo'shadi.

Shu narsa aniqki, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi tarkibida turizm sohasining sezilarli o'rni bor, demakki biz turizm sohasiga keng etibor qaratish orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsata olamiz. Asosan tarixiy maskanlarimizning ko'pligi sayyoohlар oqimiga jiddiy ta'sir ko'rsatilmoqda. Biroq bu borada yanada yuqoriqoda turish uchun, faqatgina tarixiy maskanlar bilan sayyoohlarni jalb qilishda cheklanib qolmasdan, yangi texnalogiya asri odamlari uchun ham yetarlicha takliflarni bera olishimiz kerak. Yosh kategoriyalari va har bir qatlamga to'g'ri keladigan moliyaviy ta'riflarni hisobga olgan holda ish yuritilishi kerak. Yoshi katta sayyoohlар uchun har hil turistik yoki mamlakatimiz milliy madaniyatini o'zida jam qilgan sayohatlar va ko'ngilochar dasturlar ishlab chiqilsa va yosh sayyoohlар uchun zamonaviy va milliylikni o'zida aks ettirgan zonalarni ko'paytirish orqali turistlar oqimini yanada ko'paytirishimiz mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonga turistlar oqimi asosan bizga yaqin davlatlardan, xususan Markaziy Osiyodan bo'lmoqda. Yevropa mamlakatlaridan keladiganlar soni bir muncha past. Demakki bu borada qayta tadbirlar o'tkazib Yevropa fuqorolariga ham qadimiy qadamjolarimiz haqida qiziqish uyg'otishimiz lozim. Buning uchun qadamjolarimiz aks etgan sifatli videoroliklar, maqolalar,

kinofilmlar va seriallar kabi keng va tez ommalashuvchi vositalardan foydalanishimiz kerak. Va, albatta tashrif buyuruvchi turistlarga qulaylik yaratish uchun ko'pgina yangi loyihalarni amalga oshirmoq foydali bo'ladi.

Misol sifatida aytadigan bo'lsak, Eyfel minorasini ko'rish uchun Parijga, Qadimgi Yunoniston harobalari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun esa Gretsiyaga boramiz. Va shu qatorda faqat O'zbekistonga tegishli va boshqa yurtda topib bo'lmaydigan obyektlar ham talaygina. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Har bir viloyat hududida o'rganilgan va o'rganilayotgan tarixiy obidalar talaygina. Shular qatorida hali e'tibor qaratilmagan tarixiy joylar ham salmoqlicha. Shu kabi e'tiborsiz qolayotgan sayyohlik obyektlariga ko'proq turistlar oqimini yo'naltirish, bu o'rganilayotgan obyekt yuzasidan tegishli ma'lumotlarni tinglovchilarga qiziqarli tarzda yetkazish ham sayyohlik oqimiga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Chel eldan keluvchi sayyohlar oqimini obyekt haqida ma'lumot beruvchi onlayn platformalar yaratish, sayyohlik yo'nalishida faoliyat olib boruvchi web-saytlarga ma'lumotlar joylashtirish va milliy madaniyatimizni o'zida aks ettirgan zamonaviy loyihalar ustida ishlanmalar olib borish orqali kuchaytirish mumkin. Yoki boshqa halqlar dini yoki ma'daniyati ham aks etgan joylar haqida ham kengroq izlanishlar olib borib, bu hususidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida ham berib borish kerak. Shu o'rinda ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, Surxondaryo viloyatida buddizmga aloqador ko'plab obidalarni ziyorat qilish uchun Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy davlatlaridan katta qiziqish bildirilmoqda.

Yoki Namangan viloyati misolida oladigan bo'lsak, deyarli har tumanda mahalliy aholi tomonidan e'tirof etiladigan ziyoratgohlar bor. Yangi o'rg'on tumanidagi tabarruk ziyoratgohlardan biri **Oq tom qishlog'idagi «Axtam Saxoba» ziyoratgohi** hisoblanib, Oqtom qishlog'ida joylashgan. Qishloqning nomlanishi tarixi ham shu ulug' zot nomi bilan bog'liq. **Bibi Naima (sutli buloq) ziyoratgohi va masjidi** Chortoq xududida joylashgan. Bibi Naima ona Sulton Uvays Karaniyning onalari bo'lib, qabrlari «baliqli mozor» ziyoratgohidan uncha uzoq bo'limgan joyda joylashgan. Bibi Naima ona ziyoratgohiga XII - XIII asrlarda maqbara tiklanib, shundan beri bu joyga ziyoratchilar kelib turishadi. Bu kabi ziyoratgohlarga ko'proq mahalliy va ichki sayyohlar oqimi katta.

Namanganning To'raqo'rg'onida bir tepalik bor. Bu tepalikda eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan Axsikent shahrining xarobalari yotadi. Ochiq osmon ostida joylashgan muzeyga aylantirilgan bu qadimiy shahar xarobalarini tomosha qilib, o'tmishta sayohat qilasiz. Yoshi jihatidan Afrosiyobga tenglashtirilgan, "Farg'ona Afrosiyobi" nomini olgan Axsikent tarixi yillar davomida o'rganilib kelinsa-da, u qadar ko'p e'tibor qaratilmagan. 2017 yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Namangan viloyatiga tashrifidan so'ng bir paytlar maydoni 400 hektarga yaqin, aholisi esa 200 mingdan ziyod bo'lgan "megapolis" shahriga jiddiy e'tibor qaratila boshlangan.

Hulosa sifatida aytadigan bo'lsak, yurtimizda avvalo ichki turizmni rivojlantirmay turib, xorijiy sayyohlarni jalb eta olmaymiz. Chunki horijiy sayyohlarni besh yulduzli mehmonxonalar emas, balki shu yurtning urf-odatlari, milliyligimiz, an'analarini aks ettirgan uylar, xonodonlar ko'proq qiziqtiradi. Shu

sababli uzoq hududlardagi sayyoohlar oqimi kam bo'lган nuqtalardagi ichki turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Ichki turizmni rivojlantirishda asosiy e'tiborni tegishli hudud madaniyati, tarihiy qadamjolari va shu hududgagina tegishli bo'lган qadriyatlar va analarni rivojlantirish va ularni mamlakatimiz aholisiga qiziqarli tarzda yetkazishga qaratishimiz maqsadga muvofiq. Masalan Gullar sayli faqatgina Namangan viloyatida o'tkaziladi, yurtimiz milliyligini o'zida aks ettirgan go'zal atlas va adreslarimiz chiroyidan bahramand bo'lish uchun esa Marg'ilonga tashrif buyurish kerak. Yoki mamlakatimizning har bir hududida muqaddas qadamjolar ham bisyorgina. Fuqarolar turizm madaniyatini oshirish va bu kabi sayyoohlilik obyektlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida badiiy filmlar, turli ko'ngilochar ko'rsatuvarlar, ilmiy va ommabop maqolalar orqali tanishtirib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 05.01.2019 yidagi PF-5611 son
2. Zaripova M.D. Scientific and theoretical bases for assessing the quality of staff training in the system of higher education //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 48-59.
3. Zaripova M. D. Improving the quality of training of high qualified personnel on the basis of competence level assessment //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – 2021. – C. 139.
4. A.SH. Bekmurodov, U.V. G'ofurov O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustivor yo'nalishlar: o'quv qo'llanma. – T:TDIU-2007.

“O'ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASIDA GENDER TENGLIK MASALALARI

Mansurova Nigora Dmitriy qizi¹

*¹Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va Yuridik fakulteti
Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Mansurovan649@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O'zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida keltirilgan maqsadlarni o'rgangan holda, ularni bugungi O'zbekiston uchun ahamiyati va zaruratlarini baholab boradi va o'z navbatida, asosan, strategiyadagi gender tenglik mavzusiga alohida to'xtalib o'tiladi. Strategiyada bu bo'yicha keltirilgan maqsadlarni va davlatda bu borada olib borilayotgan ishlar samaradorligini ham muhokama qiladi.